



UDK: 069(575.1)(091)

Umirzoq MUSOYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: dovurovbek@mail.com

PhD M.Darmonova taqrizi asosida

TURKISTON ASSRDA MUZEY ISHI TARIXI VA UNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Turkiston ASSR hududida muzey ishining shakllanishi, uning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi, muzey fondlarini tashkil etish jarayoni hamda madaniy merosni muhofaza qilish masalalari arxiv manbalari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan hujjatlar, farmonlar, Turkomstaris faoliyati, xususiy kolleksiyalarni milliy lashtirish, muzeylarni ilmiy-ma'rifiy markazga aylantirish jarayonlari ochib beriladi. Shuningdek, ilmiy ekspeditsiyalar orqali muzey fondlarining boyishi va muzey ishining ilmiy asosda yo'lga qo'yilishi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Turkiston ASSR, muzey ishi, Turkomstaris, arxiv hujjatlari, muzey fondlari, madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy ekspeditsiyalar, milliy lashtirish siyosati, markazlashgan boshqaruv, muzeyshunoslik.

THE HISTORY AND DEVELOPMENT STAGES OF MUSEUM WORK IN THE TURKESTAN ASSR: AN ARCHIVAL-BASED ANALYSIS

Annotqation

This article analyzes the formation of museum work in the territory of the Turkestan ASSR, its elevation to the level of state policy, the process of organizing museum collections, and issues related to the preservation of cultural heritage based on archival sources. The research is grounded on documents and decrees preserved in the National Archive of Uzbekistan, materials related to the activities of Turkomstaris, the nationalization of private collections, and the transformation of museums into scientific and educational centers. The study also demonstrates how scientific expeditions contributed to the enrichment of museum collections and the establishment of museum work on a scientific basis.

Key words: Turkestan ASSR, museum work, Turkomstaris, archival documents, museum collections, protection of cultural heritage, scientific expeditions, nationalization policy, centralized administration, museology.

ИСТОРИЯ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МУЗЕЙНОГО ДЕЛА В ТУРКЕСТАНСКОЙ АССР: АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ АРХИВНЫХ ИСТОЧНИКОВ

Аннотация

В данной статье на основе архивных источников анализируется процесс формирования музейного дела на территории Туркестанской АССР, его возведение на уровень государственной политики, организация музейных фондов и вопросы охраны культурного наследия. Исследование опирается на документы и постановления, хранящиеся в Национальном архиве Узбекистана, материалы о деятельности Туркомстариса, национализации частных коллекций и превращении музеев в научно-просветительские центры. Также показано, как научные экспедиции способствовали обогащению музейных фондов и становлению музейного дела на научной основе.

Ключевые слова: Туркестанская АССР, музейное дело, Туркомстарис, архивные документы, музейные фонды, охрана культурного наследия, научные экспедиции, политика национализации, централизованное управление, музееведение.

Kirish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi nafaqat siyosiy, balki ilmiy, madaniy va etnografik jihatdan ham alohida qiziqish uyg'otgan hududga aylandi. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olishi natijasida hududni har tomonlama o'rganish, uning tabiiy boyliklari, tarixi, etnografiyasi va madaniy yodgorliklarini tizimli ravishda tadqiq etish zaruriyati yuzaga keldi. Aynan shu jarayon Turkistonda muzey ishining shakllanishi uchun dastlabki zamin yaratdi. Ilmiy ekspeditsiyalar, sharqshunos olimlar faoliyati va kolleksionerlar tomonidan to'plangan tarixiy buyumlar keyinchalik muzey fondlarining asosini tashkil etdi[1].

1876-yilda Turkiston statistik qo'mitasi huzurida dastlabki muzey tashkil etilishi bu jarayonning amaliy ifodasi bo'ldi. Dastlab eksponatlarni saqlash joyi sifatida shakllangan ushbu muzey keyinchalik ilmiy-tadqiqot va madaniy-ma'rifiy markazga aylandi. Muzey fondlari arxeologik, etnografik, numizmatik va tarixiy materiallar bilan boyib bordi[2]. 1917-yil Oktyabr inqilobidan so'ng bolsheviklar tomonidan madaniy merosni davlat tasarrufiga olish siyosati boshlanganligi Turkistonda muzey ishining yangi bosqichini boshlab berdi. Qadimiy buyumlar, xususiy kolleksiyalar, saroy

ashyolari milliy lashtirilib, yagona davlat muzey fondi tashkil etildi. 1918-yildagi farmonlar asosida muzey fondlari markazlashtirildi va tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bu davrda Turkomstaris tashkil etilib, muzey kolleksiyalarini ro'yxatga olish, madaniy boyliklarni nazorat qilish va muhofaza qilish ishlari tizimli ravishda yo'lga qo'yildi. Muzeylar nafaqat eksponatlar saqlanadigan joy, balki ilmiy-tadqiqot va ma'rifiy faoliyat olib boriladigan markaz sifatida shakllandi.

1923-yil 22-avgustdagi Xalq maorifi xalq komissarligi (Наркомпрос) qarorida Turkomstarisning tuzilmasi, holati va faoliyati alohida muhokama qilinib, juda kam mablag' va xodimlar sharoitida qadimiy yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza qilish sohasida katta ishlar amalga oshirilgani qayd etiladi. Qarorda Turkrespublika muzeyi nafaqat saqlab qolingani, balki ko'plab yangi eksponatlar bilan boyitilgani ta'kidlanadi. Shu bilan birga, ekspeditsiyalar tashkil etish, muzeylarni inventarizatsiya qilish, Usmon Qur'onini muzeyga topshirish, muzey eksponatlarini mahalliy tilda rasmiylashtirish kabi vazifalar Turkomstarisning joriy ish rejasi sifatida tasdiqlanadi[3].

Shunday qilib, Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (ASSR) davrida muzey ishining institutsional shakllanish bosqichi boshlandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turkiston hududida muzey ishining shakllanishi masalasi turli davrlarda turli yondashuvlar asosida yoritib kelingan. Ayniqsa, sovet davri muzeyshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muzeylarni "madaniy inqilob" vositasi sifatida talqin etgan bo'lsa, mustaqillik yillarida bu jarayon tarixiy manbalar asosida xolis baholanish imkoniga ega bo'ldi. Shu jihatdan Turkiston ASSR davrida muzey ishining shakllanish bosqichlarini arxiv hujjatlari asosida yoritish bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi[4].

N.S. Sadikovaning "Музейное дело в Узбекистане" nomli monografiyasi O'zbekistonda muzey ishining tarixiy taraqqiyotini tizimli ravishda yoritgan ilk fundamental tadqiqotlardan biridir. Muallif muzeylarni ilmiy-tadqiqot va madaniy-ma'rifiy muassasa sifatida talqin qilib, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni asoslab beradi. Ayniqsa, Turkistonda dastlabki muzeylarning tashkil topishi, fondlarning shakllanishi va muzey ekspozitsiyalarining ilmiy asosda tuzilishi masalalari keng yoritilgan[5]. Shuningdek, 1955-yilda nashr etilgan "Музей истории Узбекской ССР" qo'llanmasida Turkistonda 1876-yildan boshlab muzey tashkil etish jarayoni, uning dastlabki faoliyati, fondlarining tarkibi, ilmiy ekspeditsion ishlar haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Ushbu manba Turkiston muzeylarining dastlabki shakllanish davrini yoritishda muhim ahamiyatga ega[6].

D.T. Kuryazovaning "Музей иши тарихи ва назарияси" asarida muzeyshunoslikning nazariy asoslari bilan bir qatorda Turkistonda muzey ishining shakllanishi Rossiya ilmiy ekspeditsiyalari, kolleksionerlar va ilmiy jamiyatlar faoliyati bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Muallif muzey fondlarining to'planishida ilmiy ekspeditsiyalarning tutgan o'rni alohida ta'kidlaydi[7]. *Общественные науки в Узбекистане* jurnalida e'lon qilingan Turkomstaris faoliyatiga oid maqolalarda Turkiston hududida madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha ilk davlat organi sifatida ushbu tashkilotning roli yoritiladi. Bu manba Turkomstarisning muzey ishini tizimli yo'lga qo'yishdagi ahamiyatini ko'rsatadi[8].

Bundan tashqari, Turkiston ASSR davriga oid arxiv hujjatlarida 1918-1921-yillarda muzey fondlarini davlat nazoratiga olish, xususiy kolleksiyalarni milliyalashtirish, san'at asarlarini eksport qilishni taqiqlash kabi masalalar aks etgan. Bu hujjatlar muzey ishining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini isbotlovchi muhim manbalardir. Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, Turkiston ASSR davrida muzey ishining shakllanishi masalasi umumiy tarixiy kontekstda yoritilgan bo'lsa-da, aynan arxiv hujjatlari asosida kompleks tadqiqotlar yetarli emas. Shu sababli mazkur tadqiqotda arxiv manbalari asosida Turkiston ASSR davrida muzey ishining shakllanish bosqichlarini yoritish ilmiy jihatdan muhim hisoblanadi. Arxiv hujjatlarida muzey faoliyatining aniq tashkiliy-me'yoriy asoslari ham aks etgan. Jumladan, "Bosh O'rta Osiyo muzeyi haqida Nizom"da muzeyning vazifalari, bo'limlari (geologiya, zoologiya, botanika, arxeologiya, numizmatika, etnografiya, harbiy-tarixiy va ijtimoiy inqilob tarixi), ekspeditsiyalar tashkil etish, kolleksiyalarni ilmiy va ko'rgazmali fondlarga ajratish, muzeyning boshqa muzeylar va o'quv muassasalarini ekspонатlar bilan ta'minlash vazifalari aniq belgilab qo'yilgan. Bu hujjat muzey ishining to'liq ilmiy-tashkiliy tizimga ega bo'lganini ko'rsatadi[9].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot Turkiston ASSR davrida muzey ishining shakllanish bosqichlarini yoritishda tarixiy manbashunoslik va muzeyshunoslik metodologiyasiga tayangan holda olib borildi. Tadqiqotning asosiy manbaviy bazasini O'zbekiston Milliy arxivida

saqlanayotgan Turkiston ASSRga oid fond hujjatlari, farmonlar, buyruqlar, hisobotlar, ro'yxatlar hamda ilmiy ekspeditsiya materiallari tashkil etdi. Ushbu hujjatlar orqali muzey fondlarini tashkil etish, xususiy kolleksiyalarni milliyalashtirish, madaniy merosni muhofaza qilish va Turkomstaris faoliyati tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida tarixiy hujjatlarni turkumlashtirish va manbaviy tahlil qilish usuli qo'llanildi. Farmonlar va rasmiy buyruqlar mazmunan o'rganilib, ularning muzey ishini tashkil etishdagi o'rni aniqlashtirildi. Ayniqsa, 1918-yil 19-apreldagi farmon, san'at asarlarini eksport qilishni taqiqlovchi qarorlar, muzey fondlarini ro'yxatga olishga doir hujjatlar qiyosiy tahlil qilindi. Qiyosiy-tarixiy tahlil usuli orqali sovet davrida yozilgan muzeyshunoslik adabiyotlari bilan arxiv hujjatlari solishtirildi. Bu usul Turkiston hududida muzey ishining real tarixiy jarayonlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi[10].

Shuningdek, arxiv hujjatlarida Turkomstaris tomonidan Chimkent uyezdiga paleontologik, Talas Olatoviga zoologik ekspeditsiyalar tashkil etish, Turkiston florasiga gerbariyasini nashr etish, qo'riqxonalar tashkil etish kabi vazifalar rasmiy ish rejasi sifatida belgilab qo'yilganini qayd etiladi. Bu ma'lumotlar muzey fondlarining tasodifiy emas, balki oldindan rejalashtirilgan ilmiy ekspeditsiyalar asosida shakllanganini ko'rsatadi[11]. Muzeyshunoslikning nazariy yondashuvlari D.T. Kuryazova hamda N.S.Sadikova asarlari asosida metodologik tayanch sifatida olindi. Ularning ilmiy qarashlari muzeyni nafaqat ekspонатlar saqlanadigan joy, balki ilmiy-tadqiqot va ma'rifiy markaz sifatida tahlil qilishga yordam berdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari Turkiston ASSR hududida muzey ishining qisqa vaqt ichida davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini ko'rsatadi. 1918-yil 19-apreldagi farmon bilan knyaz Konstantin Romanov kolleksiyasining davlat tasarrufiga olinishi va saroyning xalq muzeyiga aylantirilishi muzey fondlarini markazlashtirishning dastlabki yirik qadami bo'ldi. Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, chinni va bronza buyumlar yagona davlat muzey fondiga topshirildi. Shuningdek, Moskva muzey fondidan 120 ga yaqin ekspонат, jumladan "Usmon Qur'oni" olib kelindi.

Turkomstaris tashkil etilishi bilan muzey kolleksiyalarini ro'yxatga olish, xususiy jamg'armalarni musodara qilish, tarixiy yodgorliklarni nazorat qilish tizimli yo'lga qo'yildi. 1918-1921-yillarda san'at asarlari va tarixiy buyumlarni chetga olib chiqishni taqiqlovchi farmonlar qabul qilinib, fondlar qat'iy nazorat ostiga olindi. Bu chora-tadbirlar madaniy boyliklarning talon-taroj qilinishining oldini olishda muhim rol o'ynadi. Muзей fondlarining boyishida ilmiy ekspeditsiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Ko'nigut g'ori, Maydangash vodiysi, Chinoz, Talas Olatau, Issiqko'l, Sarichelek va Chotqol hududlarida o'tkazilgan ekspeditsiyalar natijasida arxeologik topilmalar, etnografik materiallar va qadimiy buyumlar muzey fondlariga kiritildi. Bu jarayon muzey ishining ilmiy asosda yo'lga qo'yilganini yaqqol namoyon etdi. N.S.Sadikova ta'kidlaganidek, bu davrda muzeylar oddiy saqlash joyi emas, balki ilmiy-tadqiqot va madaniy-ma'rifiy markazga aylandi. Ekspozitsiyalar tarixiy fan yutuqlari asosida tuzilib, muzeylar ilmiy manba va ta'limiy maskan sifatida faoliyat yurita boshladi.

1925-yil 16-apreldagi Xalq maorifi xalq komissarligi majlisida O'zbekiston hududida muzeylar tarmog'ini kengaytirish masalasi ko'rib chiqilib, Eski Buxoro, Qo'qon, Xiva, Dushanbe shaharlarida viloyat muzeylarini tashkil etish, muzeylar huzurida qishloq xo'jaligi bo'limlarini ochish, muzey yo'lko'rsatkichlarini o'zbek tilida tayyorlash, zoobotanik ekspeditsiyalar uyushtirish qaror qilinadi. Bu muzey ishining keng hududiy va ilmiy-ma'rifiy tus olganini ko'rsatadi[12].

Natijada Turkiston ASSR davrida muzey ishi markazlashgan boshqaruv, huquqiy himoya va ilmiy yondashuv asosida shakllandi. Turkomstaris faoliyati, milliy lashtirish siyosati va ekspeditsion tadqiqotlar muzey fondlarining tizimli ravishda boyishi hamda muhofaza qilinishini ta'minladi[13].

Olingan natijalar Turkiston ASSR davrida muzey ishini oddiy kolleksiyalarni saqlash faoliyatidan davlat siyosati darajasidagi tizimli madaniy-ilmiy faoliyatga aylanganini ko'rsatadi. Biroq bu jarayonni baholashda turli yondashuvlar mavjud. Sovet davri tadqiqotchilari muzeylarning rivojlanishini asosan "madaniy inqilob" va kommunistik mafkura bilan bog'lab talqin qilgan bo'lsalar, bugungi kunda arxiv manbalari asosida bu jarayonni kengroq tarixiy kontekstda ko'rib chiqish imkoniyati mavjud.

N.S. Sadikova muzeylarni ilmiy-tadqiqot va madaniy-ma'rifiy muassasa sifatida baholab, ularning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yuqori qo'yadi. Uning fikricha, muzey ekspozitsiyasi tarixni tushuntiruvchi vosita, ilmiy manba va tarbiyaviy omil sifatida xizmat qiladi. Bu qarash Turkiston ASSR davrida muzeylarning qayta tashkil etilishi va ilmiy markazga aylantirilganini tasdiqlaydi[14].

Boshqa tomondan, Turkomstaris faoliyati faqat madaniy merosni saqlash bilan cheklanmagan, balki davlat nazorati va markazlashuv siyosatining ham muhim qismi bo'lgan. Yo'riqnomalarda park va bog'larni ta'mirlash, daraxt kesish, rejalashtirish, hatto alohida daraxt shaklini o'zgartirish ham faqat guberniya muzey boshqarmasining yozma ruxsati bilan amalga oshirilishi belgilangan. Bu madaniy-tabiiy obyektlar ustidan qat'iy davlat nazorati o'rnatilganini ko'rsatadi[15]. 1918–1921-yillarda chiqarilgan farmonlar orqali xususiy kolleksiyalar musodara qilinishi, san'at asarlarini eksport qilish taqiqlanishi madaniy boyliklarni himoya qilgan bo'lsa-da, ularni to'liq davlat tasarrufiga o'tkazish siyosatini ham anglatadi.

D.T. Kuryazova ta'kidlaganidek, Turkistonda muzey ishini shakllanishi faqat sovet davri bilan bog'liq emas, balki undan oldingi davr Rossiya ilmiy ekspeditsiyalari, kolleksionerlar va ilmiy jamiyatlar faoliyati bilan uzviy bog'liq. Demak, muzey fondlarining shakllanishi uzoq tarixiy jarayon natijasi bo'lib, sovet davrida bu jarayon tizimlashtirilgan xolos[16]. Shuningdek, Turkiston muzeylarining dastlabki bosqichda faqat ekspонатlar saqlanadigan joy bo'lib xizmat qilgani, keyinchalik ilmiy ekspeditsiyalar va fondlar bilan boyib, ekspozitsiyalari tarixiy fan yutuqlari asosida tuzilganini 1955-yildagi muzey qo'llanmasi ham tasdiqlaydi[17].

Demak, Turkiston ASSR davridagi muzey ishini baholashda uni bir tomondan madaniy merosni saqlash va ilmiy markaz sifatida, ikkinchi tomondan esa davlat nazorati va markazlashgan boshqaruv tizimining bir qismi sifatida ko'rish lozim. Bu ikki jihat muzey ishini tarixiy rivojlanishida bir-birini to'ldirib turadi.

Xulosa va takliflar. 1921-yilgi "Tabiat yodgorliklari, bog'lar va parklarni muhofaza qilish to'g'risida"gi dekret mazmunidan ko'rinadiki, Turkiston ASSR hududida muzey ishi faqat tarixiy ekspонатlarni saqlash bilan cheklanmagan, balki tabiat yodgorliklarini ham davlat nazorati ostida muhofaza qilish bilan uzviy bog'langan yagona tizim sifatida tashkil etilgan. Arxiv hujjatlarida Xalq maorifi xalq komissarligi va Bosh muzey boshqarmasi orqali tabiat obyektlari, park va bog'lar, tarixiy yodgorliklar hamda muzey fondlari ustidan markazlashgan nazorat o'rnatilgani qayd etiladi. Tadqiqot davomida O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan Turkomstaris faoliyatiga oid hujjatlar, Xalq maorifi xalq komissarligi Kollegiyasi qarorlari, "Bosh O'rta Osiyo muzeyi haqida Nizom", muzey fondlarini inventarizatsiya qilish, xususiy kolleksiyalarni milliy lashtirish va ilmiy ekspeditsiyalarni tashkil etish haqidagi materiallar tahlili shuni ko'rsatdiki, Turkiston ASSR davrida muzey ishi qisqa vaqt ichida sifat jihatidan yangi, institutsional bosqichga ko'tarilgan. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ilmiy ekspeditsiyalar, kolleksionerlar va ilmiy jamiyatlar faoliyati natijasida to'plangan tarixiy, etnografik va arxeologik materiallar sovet davrida tizimlashtirilib, yagona davlat muzey fondiga birlashtirildi. 1918-1921-yillarda qabul qilingan farmonlar orqali madaniy boyliklarni himoya qilish, ularni ro'yxatga olish va nazorat qilish mexanizmlari joriy etildi. Turkomstaris tashkil etilishi esa muzey ishini markazlashgan boshqaruv, huquqiy himoya va ilmiy yondashuv asosida yo'lga qo'yishga xizmat qildi. Arxiv manbalari asosida aniqlanishicha, muzey fondlarining boyishi tasodifiy emas, balki oldindan rejalashtirilgan paleontologik, zoologik, arxeologik va etnografik ekspeditsiyalar natijasida amalga oshirilgan. Natijada muzeylar oddiy saqlash joyi emas, balki ilmiy-tadqiqot va madaniy-ma'rifiy markazga aylangan. N.S.Sadikova va D.T.Kuryazova asarlarida ta'kidlangan nazariy qarashlar arxiv hujjatlari bilan to'liq tasdiqlanadi.

Shunday qilib, Turkiston ASSR davridagi muzey siyosati keyingi davrlarda O'zbekistonda muzeysunoslikning shakllanishi va rivojlanishi uchun mustahkam tarixiy, tashkiliy va ilmiy poydevor vazifasini bajarganini arxiv hujjatlarida asosida isbotlash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Kuryazova D.T. Muzey ishi tarixi va nazariyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2007. 18-26-b.
2. Музей истории Узбекской ССР. Путеводитель. - Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1955. В.4-12.
3. O'zMA. R-394-fond, 1-ro'yxat, 70-yig'ma jild, 5-varoq.
4. «Из истории создания Туркомстариса» // Общественные науки в Узбекистане. - 1981. - Б. 2–10.
5. Садыкова Н.С. Музейное дело в Узбекистане. - Ташкент: Фан, 1975. - Б. 6–13.
6. Музей истории Узбекской ССР. Путеводитель. - Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1955.-С 4-12.
7. Kuryazova D.T. Muzey ishi tarixi va nazariyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2007. В.18-26.
8. «Из истории создания Туркомстариса» // Общественные науки в Узбекистане. - 1981. - С. 2–10.
9. O'zMA. R-394-fond, 1-ro'yxat, 70-yig'ma jild. 65-varoq.
10. Садыкова Н.С. Музейное дело в Узбекистане. - Ташкент: Фан, 1975. - Б. 6–13.
11. O'zMA. R-394-fond, 1-ro'yxat, 70-yig'ma jild. 5-varoq.
12. O'zMA. R-934-fond, 1-ro'yxat, 70-yig'ma jild. 20-varoq.
13. Kuryazova D.T. Muzey ishi tarixi va nazariyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2007. В.18-26.
14. Садыкова Н.С. Музейное дело в Узбекистане. - Ташкент: Фан, 1975. - Б. 6–13.
15. O'zMA. R-934-fond, 1-ro'yxat, 73-yig'ma jild. 11-varoq.
16. Kuryazova D.T. Muzey ishi tarixi va nazariyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2007. В.18-26.
17. Музей истории Узбекской ССР. Путеводитель. - Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1955. -С. 5-18.